

**KIYIM LOYIHALASHDA AVTOMATLASHTIRISH BOSHQARUVI**

*Kostyum dizayn kafedra assistent*

**Temirova Gulya Kiyomxonovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kiyimlarini tasniflash va loyihalash to'g'risida so'z yuritilgan. Ishlab chiqarish kiyimi ishlab chiqarish turlari bo'yicha bolinadi va bazi hollarda maxsus himoya kiyimi (metallurgiya, kimyo va boshqa korxonalarda) kabi, boshqa hollarda esa belgili kiyim kabi (yol ishchilari uchun toq sariq rangdagi jaketlar) hal etiladi.*

**Kalit so'zlar:***kiyimlar, mavsumiy kiyimlar, gazlamalar, kiyimlarni loyihalash.*

Kiyim insonning ijtimoiy mavqeining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi, ko'plab dizaynerlar tomonidan kiyimar o'zgaruvchan shakllarda, imkoniyatlarda, g'ayrioddiy qo'shimchalar va aksessuarlarda joylashtirilishi orqaliy ushbu vazifa bajarimishi mumkin.

XX asrning 20-yillarida allaqachon ko'p funksiyali narsalarning dizayni konstruktorlar va dizaynerlarning vazifalaridan biriga aylanadi. Bu tendensiya tarafdorlarini "funkSIONalistlar" deb atashgan [10-18]. Ularning dizaynga yondashuvi, universal narsalarni yaratish istagi inson ehtiyojlarini qondirishga qodir va qo'shimcha ravishda zamonaviy jamiyat oldida turgan ekologik muammolar nuqtayi nazaridan o'ta dolzarb bo'lgan resurslarni tejashga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolani yozish davrida ko'pgina soha etakchi o'zbek olimlarini ilmiy ishlarida kiyimlarning loyihalash va modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlariga etibor qaratganini ko'rish mumkun, jumladan M.K.Ramazanova, S.Sh.Tashpulatov, G.G'.Alimova, Sh.G.Jo'raeva J.Hamidov, M.Z.Murtazayev, G.M.Axmedova, M.E.Eshonkulova, Q.T. Olimov, M.V.Maksimova, T.A.Ochilov, M.K.Rasulova, A.T.Truxanova, M.Sh.Jabborova, G.K.Qulijonova, O.I.Karimova, S.S.Musayev, G.K. Hasanboyeva, M.Z.Ismatullayevalarning alohida etirof etish mumkun.[1-2-4-22]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda quyidagi metod va usullar qo'llanildi: qiyosiy va omiliy tahlil, ma'lumotlarni qayta ishlashning usullarida foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ko'p funksiyali mahsulotlarni o'zgartirish bugungi kunda yuqori talabga ega innovatsion, zamonaviy kiyimlarga tegishli. Dizaynerlar ham, konstruktorlar ham ko'p funksiyali narsalarni yaratishga rahbarlik qilishadi. Kiyimning zamonaviy dizaynida minimalizm yo'nalishi paydo bo'ldi, uning konsepsiyasi minimal ko'p funksiyali kiyimlardan iborat shkafni shakllantirishga qaratilgan kiyimlarni loyihalashdan iborat.

Zamonaviy kiyimlardan foydalanish jarayoni tajriba o'tkazishga, ya'ni har doim yangi individual tasvirni yaratishga imkon beradigan sharoitlarni yaratadi. Turli xil buyumlarni yoki kiyim elementlarini tajriba qilish, transformaladigan va o'zgartirish

qobiliyati iste'molchiga moda kostyumining ko'plab variantlarini modellashtirish va bundan tashqari uni turli xil uslub echimlarida taqdim etish uchun deyarli cheksiz imkoniyatga ega bo'lishga imkon beradi. Bu maqsad zamonaviy dizaynerlar oldiga qo'yilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun kiyimda mavjud bo'lgan ko'plab dizayn elementlari qo'llaniladi.

Ushbu elementlar ko'plab dizaynerlar tomonidan kiyim kiyish paytida ham ta'minlanishi mumkin. Kiyim - kechak buyumlari va elementlarini ko'rish va shaklini o'zgartirishda, elementlarni mahkamlash va ochishda, noan'anaviy moda qo'shimchalarida va turli xil aksessuarlarda juda katta imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

### KIYIM TASNIFI

Zamonaviy kiyim juda xilma xil. Uning tasnifi jins, yosh belgisi, inson faoliyatining turli sohalarida qollanishi (maqsadiy vazifasi), mavsumiy va gazlama turiga qarab amalga oshiriladi.

Jins, yosh belgisiga kora kattalar uchun (erkaklar va ayollar) va bolalar uchun (ogillar va qizlar) kiyimiga bolinadi.

Inson turli faoliyat sohalarida foydalanilishiga kora kiyim maishiy, kundalik, uy, tantana, sport, ishlab chiqarish, forma kiyimlarga bolinadi. Maishiy kiyim oz ichiga turli maishiy va ijtimoiy sharoitlarda kiyiladigan kiyimlarni oladi. Bu ish va turli mashgulotlar uchun kostumlar, madaniy va tomosha joylariga borish uchun tantanali kostumlar, dam olish va uyda ishlash uchun kostumlardir.

Kundalik kiyimda insonga ishga tayyorgarlik xarakterini beruvchi ishbilarmonlik kostumi tipi oz ornini egallagan.

Uy kiyimi uyda dam olish, turli mashgulotlar va ishlarni bajarish uchun qulay bolib, oz egasining individualligini erkin namoyon bolishiga imkon beradi. Aniq yechimlar turli-tumanligi bilan tantanalar uchun kiyim farqlanadi.

Sport kiyimiga kasbiy va qiziquvchanlar sporti uchun kiyim kiradi. Kasbiy sport kiyimini aniq sport turining talablarini maksimal qondirish utilitar bolibgina qolmay, ushbu sport turi uchun xarakterli harakatlar bajarilishini osonlashtirishi kerak. Qiziquvchanlar sporti uchun kiyim utilitar funksiya bilan bir qatorda malum darajada estetik funksiyalarni ham bajaradi.

Ishlab chiqarish kiyimi ishlab chiqarish turlari boyicha bolinadi va bazi hollarda maxsus himoya kiyimi (metallurgiya, kimyo va boshqa korxonalarda) kabi, boshqa hollarda esa belgili kiyim kabi (yol ishchilari uchun toq sariq rangdagi jaketlar) hal etiladi.

Formali kiyim harbiy xizmatchilar, maxsus idora xizmatchilari, oquvchilar, sport jamiyatlari va jamoat tashkilotlari azolari uchun moljallangan. Harbiy xizmatchilar uchun kiyim qo'shin turlari bo'yicha bo'linadi, farqlar eng avvalo kiyim rangida va farqlashbelgilarida namoyon bo'ladi.

3). Kiyimlarning sinflanishi, ularga qo'yiladigan talablar.

Kiyimlar 6 sinfga bo'linadi:

- 1). Jinsga ko'ra (ayollar, erkaklar, bolalar kiyimi);
- 2). Mavsumga ko'ra (yozlik, qishliq, kuzlik, baxorlik);
- 3). Gazlamasiga ko'ra (junli, ipakli, sun'iy, sintetik tolali);
- 4). Yoshiga ko'ra (chaqaloqlar, yasli yoshidagi, bog'cha yoshidagi bolalar, o'smirlar, yoshlar, kattalar, qariyalar kiyimi);
- 5). Kiyilish o'riniga ko'ra (uylik, ko'chalik, ishlik, sport, bayram kiyimlari);
- 6). Kiyim turiga ko'ra (ustki kiyimlar, ichki kiyimlar, kostyum-ko'ylaklar, bosh kiyimlar, mayda kiyimlar).

Har qanday tikuv buyumlariga talablar qo'yiladi. Kiyimga 2 xil talab qo'yiladi. Is'temolchi va ishlab chiqarish talabi. Iste'molchining talabi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi.

Gigiyenik talab;

Ekspluatatsion talab;

Estetik talab.

Gigiyenik talab deganda shuni tushuniladiki, kiyimdan foydalanganda odam sog'lig'iga zarar yetkazmasligi kerak. Erkin harakatlanish vaqtida xalaqit bermasligi kerak. YA'ni yozda kiyiladigan kiyimlar yengil, xavo o'tkazuvchan bo'lishi, quyosh nurini qaytaruvchan bo'lishi, namni shimuvchan bo'lishi kerak. Bunda gazlama asosiy rol o'ynaydi. Kiyim tabiiy tolali gazlamalardan tikilishi talab qilinadi. Masalan: paxta tolali gazlamalar juda yaxshi, gigiyenik hisoblanadi.

Ekspluatatsion talab iste'molchining kiyim chidamliligiga qo'ygan talabidir. Kiyinish davrida kiyim turli mexanikaviy va biologik ta'sirlarga duch keladi, natijada buraladi. Kiyim ana shu ta'sirlarga chidamli bo'lishi kerak. Bunday ta'sirlarda kiyim sitiladigan, cho'ziladigan, rangini o'zgartiradigan yoki g'ijimlanadigan bo'lsa, u uzoqqa chidamaydi. Undan tashqari, kiyim yoqalar, yenglar, bortlar, cho'ntak og'izlari ko'p ishqalanadi. Bu yerlarga puxta texnik ishlov berish kerak. Aks holda kiyim o'z ko'rinishini yo'qotadi.

Estetik talab kiyim tashqi ko'rinishi jihatidan bichimi, gazlamasi, bezaklari, ularga ishlov berish, chiroyli bo'lishi, sifatli bo'lishi talab qilinadi. Kiyim bichimi va bezaklari zamonaviy modada bo'lishi darkor. Unda qo'llanadigan ranglar turli-tuman bo'lib, har bir odam gavdasiga, tashqi ko'rinishiga qarab did bilan tanlashga imkon bo'lsin. Bu kiyimga bo'lgan estetik talabdir.

Ishlab chiqarishning kiyim loyihalashga talabi quyidagilar javob berishi kerak:

- 1). Bir asos bo'yicha bir necha bir qancha modellarni tayyorlash mumkin bo'lsin;
- 2). Kiyimga ketadigishan matodan yuqori tejamkorlikda foydalanadigan bo'lsin.

Kiyimni loyihalashda ishlab chiqarish korxonasi o'zida bor mexanizatsiyadan va shart-sharoitlardan to'liq foydalana olsun. Ishlab chiqarish korxonasi kiyim loyihalashda shuni talab qiladiki, loyihalangan kiyim yuqori unumli maxsulot chiqarsin. Buning natijasida maxsulot narxi arzon, samaradorligi yuqori bo'ladi.

#### 4). Standartlashtirish.

Standartlash. Aholi uchun ko'plab kiyim ishlab chiqarishda hammaning gavdasini o'lchash va har bir kishining razmerini aniqlashning iloji yo'q, albatta. Shunga ko'ra aholi o'rtasida qanday jussali odamlar koproq uchrasa, kiyimlar ana shunday kishilarga moljallab tikiladi. Standart jussalarning oqilona tuzilgan sistemasi razmerlar tasnifi (razmernaya tipologiya) deb ataladi. Razmerlar tasnifini oqilona tuzish vazifasi mumkin qadar kamroq jussalar tipini tanlab, kiyim razmerlarining aholini koproq qanoatlantirishiga erishishdan iborat.

Standart jussalarning optimal soni aholining qanoatlantiradigan bolishi lozim. Mavjud standartlarda bu masala koproq uchraydigan jussalarga qarab hal qilingan: ming kishi orasida kamida 0,1 prosentini tashkil etadigan jussalar tipi standartga kiritilgan.

Razmerlar tasnifini hamda razmerlar antropologik standartlarini tuzish vaqtida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- Yetakchi olchov belgilari tanlanadi;
- Har bir yetakchi belgi boyicha razmer olchovdagi farqsizlik intervali belgilanadi;
- Standart jussalarning optimas soni belgilanadi;
- Tobe olchov belgilarining qiymatlari hisoblab chiqiladi;
- Jussasi jihatidan tanlab olingan tipdagi kishilar aholi ichida qanchaligi aniqlanadi.

Masalan, erkaklar kiyimi razmerlarining tasnifini tuzish uchun quyidagi yetakchi o'lchov belgilari qabul qilingan R-rost (bo'y); O k –ko'krak aylanasi; O bel – bel aylanasi;ë

Razmerdan chetga chiqish chegarasi ya'ni razmerlardagi farqsizlik intervali quyidagilardan iborat: boy va bel aylanasi boyicha-6-sm ( $\pm 3sm$ .); kokrak aylanasi uchunchi boyicha - 4sm ( $\pm 2sm$ ).

Erkaklarning tipavoy jussalari. Kiyim loyihalash uchun olchov belgilari GOST 17521-72 dagi tavsiyalarga muvofiq erkalar uchun 360 ta standart jussa aniqlangan.

Xuddi shuningdek ayollar, bolalar, osmirlar, maktab oquvchilari uchun ham ana shunday standartlar mavjud.

Loyihalash-bu murakkab ijodiy jarayon bolib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyihasini ishlab chiqish kozda tutilgan.

Kiyimni loyihalashda-kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek ularni ozaro ulab-tikib, muayyan olchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi.

Kiyimning baza loyihasi. Kiyim konstruktsiyasining bazali asosi (BA) deb uch-to'rt yilda bir marta yaratiladigan, aholining zamonaviy razmer tipologiyasiga asoslangan to'kislik uchun qo'shimcha haqlarning optimal qiymatlarini moda yo'nalishi bilan mos keltirib qabul qilingan asosiy detallarning (orqa, old, eng) ratsional konstruktsiyasiga aytiladi.



Erkaklar pidjagi va ayollar paltosi bazali asoslari konstruktsiyalari TsNIISHP usuli bo'yicha [3] da batafsil berilgan. SHuning uchun, quyida erkaklar, ayollar va bolalar kiyimining BA TsNIISHP usuli bo'yicha konstruktsiyalashning faqat farqiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. UIHKKYaU (EMKO SEV) va MDESTA (MGALP) usullarida esa batafsil to'xtaymiz.

Aytib o'tilgan usullarni qo'llash bilan barcha kiyim turlarini BA chizmasini qurishning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular barchasi tipik tuzilgan figuralar razmer belgilariga asoslanganlar.